"ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS"

BITIRUVCHI SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONINI GIBRIDLASHTIRISH: LAB ROTATION MODELINING METODIK IMKONIYATLARI

Tojiddinova Aziza Akmal qizi
Tayanch doktorant, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
DOI : 10.67620/ajousci.230033

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfida ingliz tilini o‘qitish mazmuni va “Prepare” darsligining metodik imkoniyatlari gibrid ta’limning Lab Rotation modeli nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2025–2026 o‘quv yili uchun tasdiqlangan o‘quv dasturi, ish rejasi va darslik mazmuni, shuningdek, chet tillari bo‘yicha B1 daraja talablaridan foydalanildi. Tahlil natijasida darslikda kommunikativ yondashuv, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini integratsiyalash, loyiha ishlari va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun metodik imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga, dars vaqtining cheklanganligi, katta komplektli sinflarda individual yondashuvning murakkabligi, qayta aloqa va raqamli monitoring imkoniyatlarining cheklanganligi kabi muammolar aniqlandi. Lab Rotation modeli mazkur cheklovlarni kamaytirish, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash, raqamli resurslardan foydalanish va auditoriya vaqtini kommunikativ faoliyatlarga yo‘naltirish imkonini beruvchi istiqbolli model sifatida asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *gibrid ta’lim, Lab Rotation, ingliz tili, 11-sinf, CEFR, B1 daraja, kommunikativ kompetensiya, “Prepare” darsligi, raqamli ta’lim, mustaqil ta’lim.*

Abstract. *This article analyzes English language teaching in Grade 11 and the methodological potential of the “Prepare” coursebook from the perspective of the Lab Rotation model of hybrid learning. The study draws on the curriculum and teaching plan for the 2025–2026 academic year, the coursebook content, and B1 foreign-language proficiency requirements. The analysis demonstrates that the coursebook provides opportunities for developing communicative competence through integrated listening, speaking, reading and writing activities, project work, and critical-thinking tasks. At the same time, limited classroom time, difficulties in individualized instruction in large classes, restricted opportunities for feedback, and insufficiently detailed mechanisms for systematic digital integration were identified. The Lab Rotation model is considered a promising approach for addressing these limitations by supporting independent learning, digital resource use, individualized learning trajectories, monitoring, and more intensive communicative work in face-to-face lessons.*

Key words: *hybrid learning, Lab Rotation, English language teaching, Grade 11, CEFR, B1 level, communicative competence, “Prepare” coursebook, digital learning, independent learning.*

Аннотация. *В статье анализируются содержание обучения английскому языку в 11-м классе общеобразовательной школы и методические возможности учебника «Prepare» с позиции модели Lab Rotation в рамках гибридного обучения. В исследовании использованы учебная программа и рабочий план на 2025–2026 учебный год, содержание учебника, а также требования к уровню B1. Анализ показывает, что учебник обладает методическим потенциалом для развития коммуникативной компетенции посредством интеграции аудирования, говорения, чтения и письма, проектной деятельности и заданий на развитие критического мышления. Вместе с тем выявлены ограничения, связанные с учебным временем, индивидуализацией обучения в больших классах, обратной связью и системной интеграцией цифровых ресурсов. Обосновывается, что модель Lab Rotation позволяет поддерживать самостоятельную работу учащихся, индивидуальные образовательные траектории, цифровой мониторинг и усиление коммуникативной деятельности на очных занятиях.*

Ключевые слова: *гибридное обучение, Lab Rotation, обучение английскому языку, 11-й класс, CEFR, уровень B1, коммуникативная компетенция, учебник «Prepare», цифровое обучение, самостоятельное обучение.*

1. Introduction

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitish mazmuni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mehnat bozori talablari hamda ta’limning xalqaro integratsiyalashuv jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda takomillashib bormoqda. Ingliz tilining xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va raqamli kommunikatsiya vositasi sifatidagi mavqeining ortib borishi umumta’lim maktablarida mazkur fanni o‘qitish mazmuniga yangi talablarni qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasida chet tillarini o‘qitish tizimi kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim va CEFR mezonlari asosida tashkil etilib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitish mazmuni Davlat ta’lim standarti va Milliy o‘quv dasturi talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur talablar o‘quvchilarda kundalik, akademik va kasbiy faoliyatda tildan samarali foydalanish imkonini beruvchi kommunikativ kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirishni ko‘zda tutadi.

11-sinf umumiy o‘rta ta’limning yakunlovchi bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu bosqichda o‘quvchilar avval o‘zlashtirilgan bilimlarni murakkab kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash, tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, jamoada ishlash va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari lozim. B1 daraja talablari ham o‘quvchidan tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, an’anaviy dars modelida vaqt, sinf hajmi, individual qayta aloqa va raqamli monitoring bilan bog‘liq cheklovlar yuzaga kelishi mumkin. Mazkur muammolar gibrid ta’lim, xususan, Lab Rotation modelidan foydalanishning metodik imkoniyatlarini o‘rganishni dolzarb etadi.

1-jadval

Umumiy o‘rta ta’lim umumta’lim fanlar bo‘yicha davlat ta’lim standartlari tuzilmasi

Umumta’lim fanlarini o‘rganish va o‘rganish darajalari	**Darajalarining nomlanishi**
A1	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi
A1+	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning kuchaytirilgan boshlang‘ich darajasi
A2	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning tayanch darajasi
A2+	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
B1	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning umumiy darajasi
B1+	Umumta’lim fanlarini o‘rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi
Bitiruvchilarga nisbatan qo‘yilgan malaka talablari	**Tayanch kompetensiyalar** **Bitiruvchilarga nisbatan qo‘yilgan malaka talablari**

Jadvaldagi B1 darajasi 11-sinf bitiruvchilari uchun umumiy daraja sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, keyingi metodik tahlil uchun asosiy mezonlardan biri sifatida qabul qilindi.

2. Methods

Tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish, o‘quv dasturi va ish rejasini o‘rganish, darslik mazmunini metodik tahlil qilish hamda SWOT tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil uchun 2025–2026 o‘quv yili uchun tasdiqlangan ish rejasi, 11-sinf ingliz tili “Prepare” darsligi va chet tili bo‘yicha B1 daraja talablari asos qilib olindi.

Tadqiqotning amaliy qismi 11-sinf o‘quvchilari bilan 2025–2026 o‘quv yilining III va IV choraklari davomida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari doirasidagi metodik tahlilga tayandi. III chorak uchun 20 soat, IV chorak uchun 16 soat ajratilgan bo‘lib, ular mos ravishda olti va to‘rtta tematik bo‘limni qamrab oladi.

Tahlil jarayonida darslikdagi mavzular, grammatik va leksik birliklar, tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish faoliyatlari, loyiha topshiriqlari hamda tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar o‘rganildi. Darslikning an’anaviy ta’lim sharoitidagi imkoniyatlari va cheklovlari Lab Rotation modelining asosiy komponentlari bilan qiyosiy ravishda ko‘rib chiqildi.

1-rasm. 11-sinf ingliz tili fanidan 2025–2026 o‘quv yili III- IV chorak taqvimiy mavzu rejasi

Grade 11 **Term III (20 hours)**

№	Units and lessons	Hours
	Unit XI Off to school	
1	School	1
2	The past perfect	1
3	A story 2	1
	Unit XII Getting around	
4	Travel/ Modals 2	1
5	Announcements	1
6	Evaluating options	1
	Unit XIII #no filter	
7	Social media	1
8	The passive and modal passive	1
9	An online interview	1
10	**Exam 5 (skill based)**	1
	Unit XIV Let’s cook!	
11	Cooking/ Relative clauses	1
12	Discussing options 2	1
13	Life online	1
	Unit XV City or country?	
14	The artificial and natural world	1
15	Articles	1
16	An email 2	1
	Unit XVI Lights, camera, action!	
17	Reported speech	1
18	Conversations about film	1
19	Giving presentations	1
20	**Exam 6 (skill based)**	

Grade 11 **Term IV (16 hours)**

№	Units and lessons	Hours
1	Communication	1
2	Reported questions	
3	Giving opinions	1
4	Writing an article	1
	Unit XVIII We love celebs!	
5	Personal feelings and qualities	1
6	Have something done	1
7	Being famous/Fan culture	1
8	**Exam 7 (skill based)**	1
	Unit XIX The world of work	
9	Work tasks	1
10	Types of clauses	1
11	An email 3	1
	Unit XX Making plans	
12	Hopes and dream	1
13	Verbs with two objects	1
14	Achievements	1
15	Managing stress	1
16	**Exam 8 (skill based)**	1

3. Results

Tahlil natijalari “Prepare” darsligi mazmuni CEFRning kommunikativ ta’lim tamoyillariga mos ravishda tashkil etilganini ko‘rsatdi. Darslikda avval mavzuga oid leksik birliklar o‘rganilib, keyinchalik grammatika kommunikativ vaziyatlarda qo‘llanadi hamda tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish faoliyatlari orqali mustahkamlanadi. Bo‘limlar yakunida speaking yoki loyiha topshiriqlarining berilishi o‘quvchilarning produktiv nutq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

III chorakda Off to School, Getting Around, #No Filter, Let’s Cook!, City or Country? va Lights, Camera, Action! mavzulari, IV chorakda esa Communication, We Love Celebs!, The World of Work va Making Plans bo‘limlari o‘qitilishi rejalashtirilgan. Mazkur mavzular o‘quvchilarning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va zamonaviy axborot makoni bilan bog‘langanligi sababli kommunikativ vaziyatlarni tashkil etish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Grammatik mazmun ham bosqichma-bosqich murakkablashadi. Past Perfect, Passive Voice, Modal Passive, Relative Clauses, Articles, Reported Speech, Reported Questions, Have Something Done va Types of Clauses kabi birliklar o‘rganiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar maqola yozish, munozara olib borish, taqdimot qilish, mashhur shaxslar faoliyatini tahlil qilish, kelajak kasblari va rejalar haqida fikr bildirish kabi murakkab kommunikativ vazifalarni bajaradilar.

2-jadval. Umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilarining chet tillari bo‘yicha B1 darajasiga qo‘yiladigan talablar

Kompetensiyalar			Bilish va qo‘llay olish
Lingvistik kompetensiya	Nutqiy kompetensiya	Tinglab tushunish	Ommabop tanish mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma’nolarini tushuna oladi. Kasb-hunarga oid mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma’nolarini tushuna oladi. Shaxsiy qiziqish yoki kasbga oid kundalik voqealar va dasturlar haqidagi tele-radio yangiliklar sekin, biroq ravon gapirilganda ularning asosiy mazmuni va g‘oyasini tushuna oladi. Batafsil yozishga yo‘riqnomalar yoki ko‘rsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi. Tanish mavzudagi muhokamaga kirisha oladi.
		Gapirish	Dialog. Sayohat mobaynida yoki kasbiy sohada vujudga kelishi mumkin bo‘lgan aksariyat vaziyatlarda muloqot qila oladi. Tanish, shaxsiy qiziqishlarga oid yoki kundalik mavzularda tayyorgarliksiz suhbatga kirisha oladi. Ham ommabop, ham kasb-hunarga oid masalalar bo‘yicha ma’lumot ola oladi va bera oladi hamda fikr almasha oladi. Keng miqyosdagi his-tuyg‘ular va hissiyotlar, masalan, g‘amginlik, baxtiyorlik, dilxiralik, mamnuniyat, hayratlanishni ifoda qila oladi va ularga javob qaytara oladi. Mavzu bo‘yicha suhbat yoki muhokamada qatnasha oladi. Sayohat, xarid, bank va boshqa umumiy kundalik yoki mehnat faoliyatiga oid vaziyatlardagi yumushlarni samarali uddalay oladi. Yo‘riqnomalar yoki ko‘rsatmalarni tushunib, ularga amal qila oladi. Rasmiy suhbatda, masalan ishga joylashish yoki stipendiya olish uchun bo‘ladigan suhbatda oldindan kutsa bo‘ladigan savollarga javob bera oladi. Yuzma-yuz muloqotda yoki telefon orqali uchrashuv yoki tadbir vaqti va joyini rejalashtira oladi. Kasb-hunarga oid mavzudagi savollar bera oladi va ularga javob qaytara oladi.
Lingvistik kompetensiya	Nutqiy kompetensiya	Monolog	Monolog. Ixtisoslikka oid yoki boshqa tanish mavzularda qisqa, mantiqiy fikrlar bilan bog‘langan taqdimot qila oladi. Tanish vaziyatlar va mavzularni sodda tasvirlab, ular haqida bevosita axborot bera oladi. Voqea-hodisalar va tadbirlar tafsilotlarini bog‘lay oladi. Orzu-umidlar, xohish-istak va rejalarni tasvirlay oladi. Ommaga e’lon yoki taqdim qilish jarayonida rejalar yoki chora-tadbirlarni tasvirlay oladi. Sodda iboralar yordamida masala yoki dalil va sabablarni keltira oladi.

		O‘qish	Ixtisoslik sohalarida faktlarga asoslangan murakkab bo‘lmagan matnlarni to‘liq tushuna oladi. Kundalik va asosiy kasb-hunarga oid hujjatlardagi, masalan, xabarlar, qisqa rasmiy hujjatlardagi tegishli ma’lumotlarni topa oladi va tushuna oladi. Gazeta va internet matnlari va boshqa manbalardagi tegishli fikrlarni tushuna oladi. Asbob-uskunalar va qurilmalarni ishlatish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha yozma yo‘riqnomalarni tushunib, ularga amal qila oladi. Ommaviy matnlarni muhokama qilishni nazarda tutgan holda asosiy fikrlarini tushuna oladi.
		Yozish	Shaxsiy va kasbiy kontekstlarda qaydlar va xabarlar yozib, ularning shoshilinchligi, muhimligi yoki zarurligini ifodalay oladi. Standart formatga asoslangan qisqa kasbga oid hisobotlar yoza oladi. Mehnat amaliyoti tajribasiga oid oddiy hisobotlarni yoza oladi. Ish joyi bilan bog‘liq masalalar va vujudga keladigan vaziyatlar bo‘yicha oddiy hisobotlar yoza oladi. Rezyume va tavsiya xatlarini yoza oladi.
Til kompetensiyasi		Fonetik kompetensiya	Taqdimotlar va muhokamalarda ta’kidlash maqsadida urg‘u va intonatsiyadan to‘g‘ri foydalana oladi.
		Leksik kompetensiya	Kasb-hunarga oid lug‘at boyligidan faol foydalana oladi. O‘z sohalarida keng tarqalgan xalqaro va turdosh so‘zlarni taniydi va ishlata oladi. O‘z ixtisosligi doirasi va undan tashqarida so‘z tuzilishi elementlari (qo‘shma so‘zlar, prefikslar, suffikslar, so‘z o‘zagi)ni taniydi va tushuna oladi.
		Grammatik kompetensiya	Kommunikativ maqsadlarda zarur bo‘ladigan chet tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini taniy oladi va ulardan to‘g‘ri foydalana oladi.

Mazkur talablar o‘quvchining tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish hamda fonetik, leksik va grammatik kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Darslikning muhim metodik imkoniyatlaridan biri tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarning mavjudligidir. “What do you think?”, “Do you agree?”, “Give your reasons”, “Discuss with your partner” kabi topshiriqlar o‘quvchilarning shaxsiy fikrini asoslab ifodalashiga imkon beradi. Yozma topshiriqlarda namuna matn, foydali iboralar va yozish algoritmining berilishi yozma kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

3.1. Darslikning metodik cheklovlari va Lab Rotation orqali yechimlar

3-jadval. 11-sinf ingliz tili fanini o‘qitishda aniqlangan metodik cheklovlar va ularni Lab Rotation modeli asosida bartaraf etish yo‘llari

11-sinf ingliz tili fanini o‘qitishda aniqlangan metodik cheklovlar va ularni Lab Rotation modeli asosida bartaraf etish yo‘llari

Aniqlangan metodik cheklov	Ta’lim jarayoniga ta’siri	Lab Rotation modeli asosidagi metodik yechim
1 Dars vaqtining cheklanganligi	Barcha til ko‘nikmalarini bir dars davomida to‘liq rivojlantirish imkoniyati cheklanadi.	Nazariy material va mustaqil mashqlar raqamli platformada bajariladi.
2 **Individual yondashuvning yetarli emasligi**	O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasidagi tafovut ortadi.	Differensial va individuallashtirilgan topshiriqlar beriladi.
3 **Speaking faoliyatiga ajratilgan vaqtning cheklanganligi**	Har bir o‘quvchi yetarli nutq amaliyotiga ega bo‘lmaydi.	Auditoriya vaqti kommunikativ faoliyat (speaking va discussion) ga yo‘naltiriladi.
4 **Listening topshiriqlarini takrorlash imkoniyatining cheklanganligi**	Tinglab tushunish ko‘nikmasining rivojlanish sur’ati pasayishi mumkin.	Audio materiallar platformada istalgan vaqtda qayta tinglanadi.
5 **Tezkor feedbackning yetarli emasligi**	Xatolarni o‘z vaqtida bartaraf etish qiyinlashadi.	Avtomatik natijalar va elektron feedback taqdim etiladi.
6 **Mustaqil ta’lim monitoringining sustligi**	Uy vazifalarini muntazam nazorat qilish murakkablashadi.	Platforma orqali individual monitoring olib boriladi.

4. Discussion

Aniqlangan natijalar gibrid ta’limning Lab Rotation modelini 11-sinf ingliz tili ta’limiga integratsiya qilish metodik jihatdan maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Mazkur modelda o‘quv faoliyatining bir qismi raqamli muhitda mustaqil bajarilishi, o‘qituvchi bilan yuzma-yuz mashg‘ulotlarda esa kommunikativ va hamkorlikdagi faoliyatlarga ko‘proq vaqt ajratilishi mumkin.

Lab Rotation modeli darslikdagi individual bajarilishi mumkin bo‘lgan leksik, grammatik, tinglab tushunish va o‘qish topshiriqlarini raqamli muhitga ko‘chirish, auditoriya vaqtini esa speaking, discussion, presentation, project work va feedback kabi faoliyatlarga yo‘naltirish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyati qo‘llab-quvvatlanadi va o‘qituvchi individual ehtiyojlarga ko‘proq e’tibor qaratishi mumkin.

Baviskar, Hartle va Whitney konstruktivistik ta’limni o‘quvchining avvalgi bilim va tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni faol shakllantirishiga asoslangan yondashuv sifatida tavsiflaydi. Mazkur yondashuvda avvalgi bilimlarni faollashtirish, yangi bilimlarni qo‘llash, qayta aloqa olish va refleksiya muhim ahamiyatga ega (Baviskar, Hartle, & Whitney, 2009).


Shunday qilib, Lab Rotation modeli darslikning mavjud metodik imkoniyatlarini almashtirmaydi, balki ulardan foydalanish shaklini takomillashtiradi. Ayniqsa, vaqt cheklovi, individual feedback, differensial yondashuv va raqamli monitoring bilan bog‘liq muammolarni kamaytirishda ushbu modelning imkoniyatlari yuqori.

4.1. SWOT tahlili

Darslikning Lab Rotation modeli nuqtai nazaridan metodik imkoniyatlarini kompleks baholash uchun SWOT tahlilidan foydalanildi. Kuchli tomonlar qatoriga CEFR talablariga moslik, kommunikativ yondashuv, zamonaviy mavzular, critical thinking va integratsiyalashgan til

ko‘nikmalariga yo‘naltirilganlik kiritildi. Imkoniyatlar esa Lab Rotation modelini joriy etish, differensial ta’limni tashkil etish, raqamli monitoring va avtomatik feedbackni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘landi.

3-rasm. “Prepare Grade 11 Student’s Book” darsligining Lab Rotation modeli nuqtai nazaridan SWOT tahlili



5. Conclusion

O‘tkazilgan metodik tahlil 11-sinf ingliz tili ta’limida foydalanilayotgan “Prepare” darsligi CEFR B1 talablari va kommunikativ yondashuv tamoyillariga mos mazmunga ega ekanini ko‘rsatdi. Darslikda to‘rtta asosiy nutq faoliyatini integratsiyalash, kommunikativ topshiriqlar, loyiha ishlari, yozma faoliyat va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar uchun yetarli imkoniyatlar mavjud.

Shu bilan birga, dars vaqtining cheklanganligi, katta sinflarda individual yondashuvning murakkabligi, individual qayta aloqaning yetarli darajada tashkil etilmasligi va raqamli resurslardan foydalanish mexanizmlarining batafsil belgilanmaganligi darslik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Lab Rotation modelini qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil raqamli faoliyatini tashkil etish, individual ta’lim trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlash, o‘quv natijalarini monitoring qilish va auditoriya vaqtini kommunikativ faoliyatlarga yo‘naltirish imkoniyati kengayadi. Shu sababli ushbu model 11-sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun istiqbolli metodik yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

REFERENCES

1. Baviskar, S. N., Hartle, R. T., & Whitney, T. (2009). Essential criteria to characterize constructivist teaching: Derived from a review of the literature and applied to five constructivist-teaching method articles. International Journal of Science Education, 31(4), 541–550. https://doi.org/10.1080/09500690701731121
2. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing.

3. Joseph, N., & Chilton, H. Prepare. 11-sinf uchun ingliz tili darsligi. O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun USAID ko‘magida tayyorlangan.
4. O‘zbekiston Respublikasi. (2013). Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari. LexUZ. https://lex.uz/docs/-2165717
5. O‘zbekiston Respublikasi. (2013). Chet tillari bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar. https://lex.uz/ru/files/2168407.pdf